

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**


## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI**

**2024- YIL YANVAR-DEKABR  
DASTLABKI MA’LUMOT**

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natjalarini qo‘shgan holda

O'zbekiston Respublikasida faoliyat  
ko'rsatayotgan qurilish korxonalari


Qurilish korxonalari soni, birlikda



Qurilish sohasida faoliyat korsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda

2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonona va tashkilotlarning umumiy soni 27 408 tani tashkil etdi.

















**O‘zbekiston Respublikasida faoliyat  
ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari**

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 6 555 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarning 23,9 % i Toshkent shahrida joylashgan.

**Qurilish korxonalari soni**

*2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda*

<b>Toshkent sh.</b>	<b>6 555</b>	
<b>Toshkent</b>	<b>2 374</b>	
<b>Samarqand</b>	<b>2 066</b>	
<b>Farg‘ona</b>	<b>2 061</b>	
<b>Buxoro</b>	<b>2 013</b>	
<b>Qashqadaryo</b>	<b>1 941</b>	
<b>Surxondaryo</b>	<b>1 822</b>	
<b>Andijon</b>	<b>1 533</b>	
<b>Qoraqalpog‘iston R.</b>	<b>1 449</b>	
<b>Xorazm</b>	<b>1 411</b>	
<b>Namangan</b>	<b>1 290</b>	
<b>Navoiy</b>	<b>1 106</b>	
<b>Jizzax</b>	<b>1 061</b>	
<b>Sirdaryo</b>	<b>726</b>	


## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, O‘zbekiston Respublikasida jami 233 832,9 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi.

### Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati

▒ hajm, mlrd so‘mda

—■— o‘shish sur‘ati, % da



*Ma‘lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida, xususan, Toshkent shahri (57 643,4 mlrd so‘m), Toshkent viloyati (24 143,9 mlrd so‘m) va Buxoro viloyatida (16 514,5 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

### Hududlar kesimida qurilish ishlari

*yanvar-dekabr oylarida*

O‘shish sur‘ati % da

Hajmi mlrd so‘mda





### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 71,7% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,3% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 124,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 9,0% ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi.


### Qurilish ishlari hajmining o‘shish sur‘ati

yanvar-dekabr oylarida, % da



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar-dekabr oylarida



## **Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,6 % i yoki 176 841,3 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



**25,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **45 089,2** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **25,5 %** ni tashkil etdi.



**40,0 %**


Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **70 736,1** mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **40,0 %** ni tashkil etdi.



**34,5 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **61 016,0** mlrd so‘m yoki ularning jamg‘a nisbatan ulushi **34,5 %** ni tashkil etdi.

### **Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi** *yanvar-dekabr oylarida, % da*



## Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm Toshkent shahri (40 338,5 mlrd so‘m), Toshkent viloyati (15 748,2 mlrd so‘m), Buxoro viloyati (12 555,1 mlrd so‘m) va Farg‘ona viloyatida (12 254,5 mlrd so‘m) qayd etildi.



## Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 20,6% ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,3% punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4% punktga kamayib 37,2% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,7% punktga ko‘payib, 42,2% ni tashkil etdi.

### Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – **167 575,0 mlrd so‘m**




2023- yilning mos davriga nisbatan o‘rta sur‘atlari (% da)

## Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari

*Ma’lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Namangan viloyati (80,7%), Xorazm viloyati (78,7%) va Jizzax viloyatida (78,3%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*




## Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 35,4 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,6 % punktga kamayib 64,5 % ni tashkil etdi.

### Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar-dekabr oylarida*




2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

## Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari

*Ma’lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (53,1%), Sirdaryo viloyati (26,3%) va Buxoro viloyati (23,8%)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko‘paydi va 22,0 % ni tashkil etdi.


Qolgan 78,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi .

### Korxonalar turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur‘ati

yanvar-dekabr oylarida



### Jamiga nisbatan ulushi




## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

*Ma’lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (14,7%), Qashqadaryo viloyatida (12,9%) va Toshkent viloyatida (11,7%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi

*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*





**Qurilish ishlari hajmining tarkibi**


*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

**Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari  
bo‘yicha taqsimoti va o‘sish sur‘ati**


*yanvar-dekabr oylarida*



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yil mos davriga nisbatan


**105,6 %**



Norasmiy sektor

2023-yil mos davriga nisbatan

**106,2 %**



Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yil mos davriga nisbatan


**119,9 %**

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 55 114,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,1 % ga ko‘payib, 23,5 % ni tashkil etdi.


**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi**

*yanvar-dekabr oylarida*



**21,4 %**

**2023**



**23,5 %**

**2024**

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati**

*yanvar-dekabr oylarida*

**125,7 %**

oldingi yilning  
mos davriga  
nisbatan

**106,8 %**

oldingi yilning  
mos davriga  
nisbatan

**110,2 %**

oldingi yilning  
mos davriga  
nisbatan

**96,9 %**

oldingi yilning  
mos davriga  
nisbatan

**119,9 %**

oldingi yilning  
mos davriga  
nisbatan

**24 263,7**  
*mlrd so‘m*

**2020**

**29 585,6**  
*mlrd so‘m*

**2021**

**37 236,4**  
*mlrd so‘m*

**2022**

**43 533,3**  
*mlrd so‘m*

**2023**

**55 114,0**  
*mlrd so‘m*

**2024**

**Yillar**

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (32,3% i), Qashqadaryo viloyatida (27,0%) va Navoiy viloyatida (25,3%) qayd etildi.

**Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**

*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,2% i to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,8% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,6% ni tashkil etgan holda 107 950,1 mlrd so‘m miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**

*yanvar-dekabr oylarida*



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati**

*yanvar-dekabr oylarida*




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan  
bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (68,3%), Sirdaryo viloyati (62,4%) va Jizzax viloyatiga (62,2%) to‘g‘ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi**

*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘m*




**Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish  
ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,3% ni yoki 70 768,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,2% ni tashkil etdi. Shundan 52 616,0 mlrd so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,4% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 8 400,0 mlrd so‘mni va 102,2% ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta‘mirlash ishlari 9 752,6 mlrd so‘mni va 108,4% ni tashkil etdi.


**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish  
ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**

*yanvar-dekabr oylarida*



**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari  
hajmi va o‘shish sur‘ati**

*yanvar-dekabr oylarida*





**Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish  
ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (10 231,0 mlrd so‘m), Toshkent shahrida (8 052,8 mlrd so‘m) va Namangan viloyatida (7 073,0 mlrd so‘m ) qayd etildi.

**Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan  
bajarilgan qurilish ishlari hajmi**  
*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*

	<b>2 959,0</b>
<b>Qoraqalpog‘iston Resp.</b>	<b>4 484,2</b>
<b>Andijon</b>	<b>6 956,2</b>
<b>Buxoro</b>	<b>1 676,7</b>
<b>Jizzax</b>	<b>4 852,3</b>
<b>Qashqadaryo</b>	<b>4 770,9</b>
<b>Navoiy</b>	<b>7 073,0</b>
<b>Namangan</b>	<b>2 192,1</b>
<b>Samarqand</b>	<b>4 828,3</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>1 127,1</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>10 231,0</b>
<b>Toshkent</b>	<b>5 502,1</b>
<b>Farg‘ona</b>	<b>6 063,1</b>
<b>Xorazm</b>	<b>8 052,8</b>
<b>Toshkent sh.</b>	




## Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

**Ma’lumot uchun:** davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Andijon viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 7,8% i), Jizzax viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 5,5% i) va Qashqadaryo viloyatida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 4,7% i) qayd etildi.

### Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda




### Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda



**Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**

**Ma’lumot uchun:** nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (98,0%), Toshkent shahrida (97,8%) va Farg‘ona viloyatida (97,7%) qayd etildi.

**Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**  
*yanvar-dekabr oylarida, mlrd so‘mda*



## **Qurilish ishlari Uslubiy tushuntirishlar**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlov ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlarini o‘z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**  
**Tel. 71 203-80-00 (1161)**